

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**YAGONA AKSIYADORINING**  
**QARORIDAN KO'CHIRMA**

2024 yil «15» oktabr

№ 10/1

Toshkent sh.

**Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish**  
**yo'li bilan oshirish to'g'risida**

...

...

...

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2025 yil 1 yanvardan 500 000 000 000 (Besh yuz milliard) so'mni tashkil etishi lozimligi belgilanganligi sababli Bank tomonidan ustav kapitali miqdorini 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so'mga oshirish lozim.

Bank Kuzatuv kengashining "Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan oshirish yuzasidan Yagona aksiyadorga taklif kiritish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bank operatsiyalari hajmini ko'paytirish orqali moliya bozorda o'z mavqeini va rolini oshirish hamda bank foydasini ko'paytirish maqsadida bank ustav kapitali miqdorini 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so'mga oshirish to'g'risida Yagona aksiyadorga taklif kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009 yil), Bank Ustavi va "Yagona aksiyadori to'g'risidagi nizom" talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

**qaror qiladi:**

1. Bankning umumiy qiymati 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so'mlik nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so'm bo'lgan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona qo'shimcha oddiy aksiyalari chiqarilsin.

Aksiyalar yopiq obuna orqali Yagona aksiyador "Leader Finance" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga 1 000 so'mdan, mazkur chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 2024 yil 6 dekabrga qadar qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining tegishli savdo maydonchalarida bitim tuzish orqali joylashtirilsin.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarga to'lov jamiyatning bank hisob raqamiga milliy valyutada naqdsiz shakldagi pul mablag'lari o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilsin.

Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda 10 kun ichida

qaytarilsin.

2. "Smart bank" aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi (A.To'rayev)ga qo'shimcha aksiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish va joylashtirish bilan bog'liq zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosi yuzasidan nazorat "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

**Yagona aksiyador nomidan,**

"Leader Finance" MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

*Ko'chirma asligi to'g'ri:*



*Nurmuratov*